

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, dastlabki ma'lumot.)

2020-yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2184,9 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 11,3 % ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda:

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



Xodimlar soni

101,1



Mehnatga haq to'lash tarzidagi
hisoblangan daromad


112,6



O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi


111,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlarining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi,%:
(2020-yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm:

(2020-yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi:


(2020-yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik:</i>	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
Viloyat bo'yicha - jami	2814	124854	3273523,7	2184,9
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	34	14482	461650,6	2656,5
Qurilish	13	1358	40045,3	2457,4
Savdo	21	1847	48964,9	2209,2
Tashish va saqlash	9	2452	124101,9	4217,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	58	888,2	1276,2
Axborot va aloqa	18	787	22748,3	2408,8
Bank, sug'urta va vositachilik	29	2522	164862,9	5447,5
Ta'lim	1121	57847	1265304,1	1822,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	72	23486	546973,1	1940,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	86	1919	35614,5	1546,6
Boshqa faoliyat turlari	1400	18096	491355,9	2262,7

Ish haqi. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1121 ta muassasada 57847 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1 265304,1 mln.so'mni** (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 822,8 ming so'mni** tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **5,4 %** ga o'sdi.






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020-yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri – 134,7 % va Xonqa tumani –103,1 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Hazorasp - 90,4 %, Gurlan - 89,0 %, Tuproqqal'a - 88,6 % hamda Qo'shko'pir – 87,3 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






**Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2020-yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi
va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan
tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumani - 159,8 %, Bog'ot tumani – 133,6 %, Qo'shko'pir tumani – 109,0 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Xonqa – 74,3 %, Gurlan – 67,6 %, Hazorasp – 66,5 %, hamda Yangibozor – 58,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari:)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Yangiariq tumani -123,3 %, Qo'shko'pir tumani - 120,6 % va Bog'ot tumani – 119,6 % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Tuproqqal'a 88,4%, Yangibozor - 85,3 %, Hazorasp -82,9% hamda Shovot – 80,6 % tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar- dekabr ; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Xonqa tumanida – 133,1 % shuningdek, viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida-105,4 % kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Bog'ot –74,0 %, Yangibozor – 67,4 %, Gurlan – 61,3 % hamda Qo'shko'pir – 44,7 % tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



**Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

*(2020-yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)*

**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:
Urganch shahar 5523,0**




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida - 101,4 % ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Qo'shko'pir tumani - 30,6 %, Yangibozor tumani - 25,4 %, Gurlan tumani - 25,0 % hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.

(2020-yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)

Xorazm viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati moliya va sug'urta faoliyatida 41,0 %, tashish va saqlash sohasida 93,0 %, qurilishda 12,5 %, axborot va aloqada 10,2 % kuzatildi.




Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

Sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning oktabr oyida 2585,0 ming so'mni, noyabr oyida 2800,5ming so'mni, dekabr oyida esa 3085,2 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.


Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'r satkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga kamaydi.





Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning oktabr oyida 1834,7 ming so'm ni, noyabr oyida 1943,6 ming so'mni, dekabr oyida esa 2101,0 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga o'sdi.




Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %:

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)


Bank, sug'urta va vositachilik faoliyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020 yilning oktabr oyida 5008,1 ming so'mni, noyabr oyida 4820,1 ming so'mni, dekabr oyida esa 8520,6 ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Soha bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,0 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati, %:

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Tuproqqal'a tumanida 3080,1 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (141,0 %), Urganch shahrida 2729,9 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (124,9 %), tashkil etgan bo'lsa, Yangibozor tumanida 1762,4 ming so'mni (80,7 %), Qo'shko'pir tumanida 1735,0 ming so'mni (79,4 %), Gurlan tumanida 1720,1 ming so'mni (78,7 %), Hazorasp tumanida 1661,9 ming so'mni (76,1 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Shahar va tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:**

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ktlaridan tashqari, ming so'm.)

	2019-yil yanvar- dekabr.	2020-yil yanvar- dekabr .	O'sish sur'ati, %.
Xorazm viloyati	1962,7	2184,9	111,3
Urganch sh.	2317,9	2729,9	117,8
Xiva sh.	1703,2	1829,7	107,4
tumanlar:			
Bog'ot	1697,6	1911,7	112,6
Gurlan	1593,8	1720,1	107,9
Qo'shko'pir	1583,1	1735,0	109,6
Urganch	1926,7	2034,8	105,6
Hazorasp	2214,0	1661,9	75,1
Tuproqqal'a	1827,8	3080,1	168,5
Xonqa	1709,7	2019,9	118,1
Xiva	1637,4	1873,3	114,4
Shovot	1808,1	1786,3	98,8
Yangiariq	1616,3	1960,1	121,3
Yangibozor	2317,9	1762,4	76,0

*Ma'lumot uchun:
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining "2020 yil uchun
O'zbekiston Respublikasining davlat
byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini
ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi
Qaroriga muvofiq, 2020-yilning
1-fevralidan boshlab mehnatga haq
to'lashning eng kam miqdori 679 330
so'mni tashkil etadi.*



***Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi tel:(62)2246508.***